O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori v.v.b
Z.Ya.Raxmanov
_____
«____»_____2026 yil

«MA’QULLANDI»
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK raisi
A.T.Yusupov
_____
«____»_____2026 yil

07.00.03 – «Jahon tarixi» ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon DASTURI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2026 yil «____»_____ ____-sonli qarori bilan tasdiqlangan

TOSHKENT – 2026

ANNOTATSIYA

“Jahon tarixi” ixtisosligidan malakaviy imtihon qabul qilish dasturi O’zbekiston Respublikasining “Ta`lim to’g’risida” Qonuni hamda pedagogika fanini rivojlantirishga oid mavjud me`yoriy hujjatlar asosida yaratilgan bo’lib, psixologik-pedagogik tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismidir. Uning asosiy maqsadi – Jahon tarixi bo’yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini uning ushbu fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy kontseptsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu bilimlar tarmog’ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog’lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganligini ko’rsatib berishi lozim.

Tuzuvchilar : t.f.d., dots. F.O.Ismatullayev
t.f.n, dots. Yo.R.Tayronov

Taqrizchi: t.f.d., prof. D.Bobojonova
PhD, dots. J.M.Kamolov

Ushbu dastur universitet Ilmiy-texnik kengashining 2026- yil 6- yanvardagi 1-sonli majlisida tasdiqlangan.

JAHON TARIXI FANINING METODOLOGIYaSI

Maqsad va vazifalar

07.00.03 – “Jaxon tarixi” malakaviy imtihonining o‘tkazilishidan maqsad oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimida o‘qishga tayyorgarlik darajasini aniqlash hisoblanadi. Ixtisosligi “Jaxon tarixi” bo‘lgan tadqiqotchilarning malakaviy imtihon dasturi eng qadimgi davrlardan boshlab, bugungi kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Jaxon tarixining dolzarb muammolari va asosiy mavzularini, shuningdek, ularning tarixshunosligi va manbashunosligi tahlilini o‘z ichiga oladi. Katta ilmiy xodim-izlanuvchilar ushbu masalaning nafaqat o‘rganilish tarixini, balki, hozirda munozarali, turli nuqtai nazarlardan yondoshilgan talqinlari bilan ham tanish bo‘lishlari lozim. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda tadqiqotchilarga ma’lum bir adabiyotlarni tavsiya etish bilangina cheklanish maqsadga muvofiq emas. Chunki, konseptual ahamiyatga ega bo‘lgan fikrlarni nafaqat maxsus monografik tadqiqotlarda, balki boshqa adabiyotlarda ham uchratish mumkin. Shunday ekan, katta ilmiy xodim-izlanuvchilarga yangi ilmiy adabiyotlar bilan bir qatorda, ilmiy va ijtimoiy- siyosiy xarakterdagi davriy nashrlarni, shuningdek, xorijda chop etilgan adabiyotlarni ham o‘rganib chiqish tavsiya etiladi.

Mazkur malakaviy imtihoni dasturi o‘z ichiga Jaxon tarixining eng qadimgi davridan hozirgi vaqtgacha bo‘lgan davrini qamrashi tarixni o‘zining ichki qonuniyatlariga ega bo‘lgan kompleks jarayon sifatida talqin etish imkonini beradi. Unda dunyo miqyosida turli davrlarda mavjud bo‘lgan qadimiy madaniyatlar va turli bosqichlari taraqqiyotidagi o‘ziga xos xususiyatlari va tarixiy rivojlanish qonuniyatlari aks topgan. Dastur Nizomiy nomidagi TDPU professor o‘qituvchilari tomonidan tayyorlanib, Tarix fakulteti kengashida muhokama qilingan.

Mazkur dasturga Jaxon tarixidagi mavjud asosiy ilmiy muammolar va munozarali masalalarni alohida ajratib o‘rganish imkonini beruvchi xronologik usul asos qilib olingan. Dasturda umumnazariy yondoshuvlarning muayyan tarixiy tadqiq etish tajribasi bilan birligi zamonaviy tarixiy tahsilning ajralmas qismini tashkil etadi.

Asosiy mavzular:

1-mavzu:Ibtidoiy jamoa tuzumining shakllanishi

Insonning kelib chiqish jarayoni bo‘lib unda avstralopitek, pitekantrop, sinantrop, geydelberg kabilarning shakllanishi yotadi. Mehnat va mehnat qurollarining roli, fikr, nutqning vujudga kelishi kabi qator masalalarni o‘z ichiga oladi. Antropogenez jarayonining yakunlanishi. Zamonaviy odamning paydo bo‘lishi, irqlar, urug‘chilik, ishlab chiqarish, xo‘jalikning vujudga kelishi bu davrning rivojlanib borish jarayonidir.

Ibtidoiy jamoa tuzumining parchalanish davri. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish davri bo‘lib, metallurgiya (mis, jez, temir) vujudga keladi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik ixtisoslashadi. Toifa jamiyat asoslari paydo bo‘ladi. Qabila ittifoqlari paydo bo‘ladi.

2-mavzu: Ibtidoiy jamoa va sivilizasiya

Toifaviy jamiyatning vujudga kela boshlashi va bu jarayonning notekis rivojlanish davridir. Etnik va xo‘jalik aloqalari. Ibtidoiy munosabat va tasavvurlar.

3-mavzu:Qadimgi Mesopatamiya

Tabiiy sharoitlari. Qadimgi qabilalarning kelib joylashishlari, yuksalish va dastlabki F davlatlari tarixi va nihoyat Mesopatamiya madaniyati masalalari muhumdir.

4-mavzu: Qadimgi Misr tarixi

Manbalar, tabiiy sharoit, aholisi, davlatning paydo bo‘lishiga e’tibor beriladi. Misr tarixida I-II-III-shohliklar davri. Misrning rivojlanishi va harbiy yurishlari, chet elliklar bosqini va Misrning madaniyati masalalariga e’tibor qilinadi.

5-mavzu: Qadimgi davrda Kichik Osiyo

Manbalar, aholisi, tabiiy sharoiti. Eramizdan avvalgi II ming yillikda shahar, davlatlar. Xett davlatining madaniyati va uning qulashi muhumdir. Troya, Lidiya, Frigiya davlatlari. Urartuning yuksalishi va qulashi shuningdek boshqa davlatlarga e’tibor beriladi.

6-mavzu: Sharqiy O‘rta dengiz hududi

Suriya, Finikiya, Falastin va Arabiston sharoiti va aholisi. Finikiya va Suriyaning yuksalishi. Falastin, Isroil, Nubiya podshohligi va Dovut, Sulaymon podsholigi davri. Arabiston va undagi qabilalar va davlatlar. Sharqiy O‘rta dengiz hududi va Arabiston sharoiti va aholisi, u erdagi davlatlar masalasi.

7-mavzu: Qadimgi Eron

Eramizdan avvalgi III-II ming yillikda Eron manbalari, sharoiti, aholisi. Elam, Midiya va Ahamoniylar davrida yuksalishiga e’tibor beriladi.

8-mavzu: Qadimgi Hindiston

Eramizdan avvalgi III-II ming yillikda Hindiston manbalari, sharoiti, aholisi. Mahenjo-Daro, Xarappa tarqqiyotini o‘rganish lozim. Gang vodiysi, Magadha, Maur’ya davlati. Chandragupta, Ashoka podsholigi davrlari muhumdir. Hindiston Kushon podsholigi tarkibida. Janubiy Hindiston davlatlari va qadimgi Hind madaniyatiga e’tibor beriladi.

9-mavzu: Qadimgi Xitoy

Tabiiy sharoiti, aholisi, manbalar. Xitoy tarixining davrlari va ularning iqtisodini, davlat tashkil topishini bilish kerak. Shan(In’) davlati va uning qulashi, Chjou davlati, Xitoy podshohlari o‘rtasidagi kurash. Shan’ Yan islohotini bilish lozim. Xan’ imperiyasining yuksalishi, islohotlar, xalq qo‘zg‘alonlari va nihoyat imperiyaning parchalanishi bilan uch shohlik davrlarini o‘rganish lozim.

10-mavzu: Qadimgi Yunoniston

Yunonistonning joylashish o‘rni, aholisi, uni o‘rganish tarixida G.Shliman, A.Evanslarning o‘rni. Krit- Mikena davriga e’tibor beriladi. Doriy qabilalari, Gomer davri, shahar davlatlar, buyuk Yunon mustamlakachiligi o‘rganiladi.

11-mavzu: Eramizdan avvalgi IX asr oxiri - VI asrlarda Attika

Attikaning aholisi, xo‘jaligi, toifa jamiyatning vujudga kelishi. Afina aslzodalari ustida to‘xtalish kerak. Toifa qonunlari, Solon islohoti va Afina qulchilik demokratiyasi masalasi muhumdir.

12-mavzu: Yunon-Eron urushi

Yunon-Eron urushi va Kalliy sulhi yakunlari. Yunonistonning yuksalishi, Perikl faoliyati, Peloponnes urushi va uning oqibatlari. Yunoniston davlatlari orasidagi raqobat va siyosiy tarqoqlik kabilar ustiga to‘xtash kerak.

13-mavzu: Afina quldorlik demokratiyasining ravnoqi

Afina quldorlik davlatining tashkil topishi. Eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Attikaning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi. Toifa qonunlari, Solon islohotining toifa mohiyati. VI asrda Afina quldorlik davlatining xarakteriga e’tibor beriladi.

14-mavzu: Sparta davlati

Eramizdan avvalgi IX-VIII asrlarda qadimgi Peloponnes. Qadimgi Sparta, Korinf, Argos davlatlarining paydo bo‘lishi, ularning tuzumi, ilotlar periyeklar masalasi. Shuningdek, Sparta bolalar tarbiyasi, harbiy ittifoqlar o‘rganilishi kerak.

15-mavzu: Peloponnes urushi

Peloponnes urushi. Bu urushni kelib chiqishi, Peloponnes urushining birinchi davri, Nikiy sulhi, Sitsiliya ekspeditsiyasining mag‘lubiyati, Dekeleya urushi, Spartaliklar g‘alabasi masalalari yoritilishi kerak.

16-mavzu: Aleksandr Makedonskiy saltanati

Makedoniya davlatining tashkil topishi. Manbalar, sharoiti, aholisi. Filipp II va uning islohotlari, harbiy yurishlari. Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlari va saltanatining kuchayishi.

17-mavzu: Ellin davlatlari va ellin davri madaniyati

Ellinistik davlatlar va ularning madaniyati. Ptolomeylar, Salavkiyalar, Yunon-Baqtriya, Pergam podsholiklari tavsifi. Makedoniya va Yunonistondagi ahvol, Rim Parfiya istilolari, Ellinistik madaniyatning tarqalish geografiyasi.

18-mavzu: Qadimgi Italiya

Ilk qulchilik jamiyati va Italiya davlati. Italiyaning geografik o‘rni, sharoiti, aholisi va qabilalari. Qulchilik jamiyati va davlatining vujudga kelishiga to‘xtalib o‘tiladi. So‘ngra Rim shahrining vujudga kelishi, patritsiy va plebeylar, qulchilik, Serviy Tuliy islohoti.

19-mavzu: Rim Respublikasi

Respublikaning o‘rnatilishi, Rimning Italiyani istilo etishi. Rimning g‘arbiy va sharqiy O‘rta dengizda hukmronlik qilish uchun kurashi.

20-mavzu: Rimning g‘arbiy va sharqiy O‘rta dengizda hukmronlik qilish uchun kurashi

Eramizdan avvalgi III asrda G‘arbiy va Sharqiy O‘rta dengiz hukmronligi uchun Rim va Karfagen kurashi, I-II Puni urushlarida Rim g‘alabalariga e’tibor beriladi. III Puni urushidan so‘ng Rim kuchli O‘rta dengiz Davlatiga aylanishiga e’tibor beriladi.

Rimdagi qul egaligi va qullarning Sitsiliyadagi birinchi qo‘zg‘aloni. Qulchilikning rivojlanishi, qullarning iqtisodiy va huquqiy holati. Sitsiliyadagi qullar qo‘zg‘aloni, aka-uka Grakxlarning faoliyati ustida fikr yuritilishi kerak.

21-mavzu: Rim Respublikasining qulashi

Eramizdan avvalgi II asrda Rimda agrar va demokratik harakatlar. Eramizdan avvalgi II asrlarda Rimdagi ijtimoiy ahvol, er masalasi, amalga oshirilmoqchi

bo‘lgan islohotlar va ularning natijalari kabilarga e’tibor beriladi. Rim Respublikasi va uning qulashi.

Rim Respublikasidagi fuqarolar urushi. Sulla diktaturasi, qullar qo‘zg‘aloni, Pompeyning Sharq siyosati, 1-Uchlar Ittifoqi masalasiga e’tibor beriladi. Yuliy Sezar, Oktaviyan davrida Respublika tuzumining qulashiga e’tibor beriladi.

22-mavzu: Imperiya davrida Rim davlati

Ilk Rim imperyasi davrida Oktaviyan hukmronligi va uning yuritgan siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar muhum masaladir.

23-mavzu: Ilk Rim imperyasi davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar

III asrda qulchilikning inqirozi, ommaviy harakatlar, xristian dini kabi masalalarga e’tibor beriladi.

24-mavzu: Eramizning III-IV asrlarida so‘nggi Rim imperiyasi. Dominat davri

Rim davlati va undagi Dominat tuzumi, Imperiyani qayta tiklash uchun kurash, ommaviy harakatlar ustida to‘xtalib o‘tiladi. IV-V asrlarda Rim madaniyati masalalariga e’tibor beriladi.

25-mavzu: G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi

Xalqlarni buyuk ko‘chishi va uni Yevropaga ta’siri. Federatlarning tashkil topishi. Xristian dinining yoyilishi. Xunlarga qarshi kurash. Vestgotlar qirolligini tuzilishi.

26-mavzu: O‘rta asrlar tarixini davrlashtirish

Jahon tarixida o‘rta asrlar tarixini o‘rni. O‘rta asrlar tarixini davrlashtirish. Bu davrda o‘rganiladigan eng dolzarb masalalar. O‘rta asrlar tarixi davri manbalari. Fanni o‘rganish yuzasidan uslubiy asos.

Rim imperiyasining inqirozi. Varvarlar qirolliklarining tashkil topishi.

27-mavzu: Rim imperiyasining inqirozi. Varvarlar qirolliklarining tashkil topishi

Keltlar, germanlarning ijtimoiy ahvoli. Varvar qabilalarining ijtimoiy va siyosiy hayotini aks ettiruvchi manbalar. Vandallar, burgundlar, langobardlar, gotlar qirolliklari.

28-mavzu: Frank qabilalarida imperiyaning shakllanishi

Franklarning bo‘linishi, ularning xo‘jaligi. Mayordamlikning mohiyati. Merovinglar va Karolinglar sulolalari. Karl buyuk zamonida imperiyaning tashkil topishi. Franklarda diniy dunyoqarashning shakllanishi. Karolinglar uyg‘onishi.

29-mavzu:VI-XI asrlarda Vizantiya imperiyasi

Bolqon yarim orolidagi siyosiy vaziyat. Yustinianni podsholigi davridagi islohotlar va xalq harakati. Isavrlar sulolasi hukmronligi. “Dehqonchilik qonuni” x,ujjati. Monofizitlar, nestorianlar, pavlikanlar. Makedoniyaliklar sulolasi hukmronligi.

30-mavzu:VI-XI asrlarda slavyan xalqlarining ijtimoiy ahvoli va ularda ilk davlatlarning vujudga kelishi

VI-XI asrlarda slavyanlarning ijtimoiy ahvoli. Slavyanlarning guruhlarga bo‘linishi. Harbiy va janubiy slavyanlarda davlatchilik munosabatlarining shakllanishi. Ulug‘ Moraviya davlati. Slavyanlarda yozuvning ixtiro etilishi.

Slavyanlarning ijtimoiy hayoti. Bolgariya, Polsha, Chexiya, Serbiya, Xorvatiya davlatlarining shakllanishi.

31-mavzu:Ilk o‘rta asrlarda Hindiston va Xitoy

Markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun kurashlar. Gupta davlati. Suy sulolasi va Tan imperiyasi. Buyuk Kanal. Ellara va Ajanta ibodatxonasi. Buddizm dinining tarixiy taraqqiyoti. Xitoy va Hindiston madaniyatining o‘ziga xosligi.

32-mavzu:IX-XI asrlarda Germaniya va Fransiya davlatlari

Germaniyada davlatchilik belgilarining taraqqiy etishi. Dastlabki sulolalarning hokimyatni o‘z qo‘llarida birlashtirish uchun boshlangan siyosiy urushlari. Investitura uchun kurash. Tashqi siyosatdagi agressivlik. Nemis feodallarining slavyan erlarini istilo qilishlari.

IX-XI asrlarda Fransiya. Fransiya qirolligining shakllanish, sharoitlari. Toifalar o‘rtasidagi munosabat. Qirol hokimyatining kuchayib borishi. Parij shahri statusi. Kapetinglar sulolasining ichki va tashqi siyosati.

33-mavzu:IX-XI asrlarda Angliya davlati

Angliyada davlatchilik munosabatlarining shakllanishi. Xalqlarning Skandinaviya bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashlari. Alfred Buyukning idora qilishi. Davlatni boshqarish usullarining takomillashishi. Yer egaligi shakllarining ko‘payishi. “Daxshatli sud kitobi”.

34-mavzu.VI-XI asrlarda arablarning ijtimoiy ahvoli

Islom dinigacha arablarning yashash sharoitlari. Islom dinining paydo bo‘lishi va mohiyati. Xalifalikning tashkil etilishi va sulolalar o‘rtasida taxt uchun kurash. Arab bosqinchiligiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘alonlar. Islom madaniyatining yoritilishi.

VI-XI asrlarda G‘arbiy Yevropada ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar.

Yerga egalik qilish shakllarining ko‘payib borishi. Ritsarlar toifasining shakllanishi. Dehqonlarning ijtimoiy ahvoli. Savdo va hunarmandchilik. Yangi xildagi shaharlarning shakllanishi va ularning turlari.

35-mavzu:Salib yurishlari va ularning ahamiyati

Rim papaligi g‘oyaviy ta’limotining kuchayishi. Salib yurishlarining ijtimoiy va iqtisodiy asoslari. Salib yurishlari ishtirokchilarining toifaviy tarkibi. Dastlabki Salib yurishlari. Diniy ritsarlik ordenlarining tashkil etilishi. So‘nggi Salib yurishlari. Salib yurishlarining oqibatlari.

36-mavzu:XI-XV asrlarda Fransiya

Fransiyada shaharlar taraqqiyoti. Absolyut monarxiyaning kuchayishi. Davlatni markazlashtirish borasidagi islohotlar. Yuz yillik urush. Fransuz millatining tashkil topish jarayoni.

37-mavzu:XI-XV asrlarda Angliya

Hokimiyatning markazlashishida ajnabiylarga qarshi olib borilgan urushlarning ahamiyati. Parlamentning tashkil topishi va rivojlanishi. Angliyada dehqonlar norozilik harakatlarining kuchayib borishi.

38-mavzu:XI-XV asrlarda Germaniya va Rus davlatchiligining rivojlanishi

Germaniya shaharlarida savdoni taraqqiy etishi. Nemis feodallari va slavyanlar o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashishi. Ganza va Shvabiya ittifoqlarining olib borgan faoliyati.

XI- XV asrlarda Rus davlati.

39-mavzu:XI-XV asrlarda Ispaniya va Portugaliya

Pireniya yarim orolida arablar istilolarining oqibatlari. Rekonkista harakatining avj olishi va asosiy bosqichlari. Ispan madaniyati.

40-mavzu:XI-XV asrlarda Chexiyada siyosiy kurashlar

Rim papasining Chexiyada olib borgan ishlari. Yan Gusning siyosiy va ijtimoiy qarashlari. Konstantin sobori. Guschilar urushining borishi va oqibatlari. Nemis kolonizasiyasining kuchayishi.

41-mavzu:Ilk Italiya uyg‘onishi

Ilk italyan uyg‘onishi. Shaharlar vazifasining o‘zgarib borishi. Gumanizm. Ilmiy bilimlarning taraqqiyoti. Italiyada uyg‘onish davri namoyandalari.

42-mavzu:Shaharlar vazifasining o‘zgarib borishi

Shaharlar vazifasining o‘zgarib borishi. Manufaktura munosabatlarining o‘zaro aloqalari. Hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi. Burjua mafkurasining shakllanishi.

43-mavzu:Usmoniylar davlati va uning istilolari

XI-XV asrlarda Vizantiya imperiyasi. Osiyo va Yevropa madaniyatining o‘zaro ta’siri. Konstantinopol shahrining ijtimoiy mavqei. Turklarning siyosiy maqomi va imperiyadagi o‘rni. Usmoniylarning istilolari.

44-mavzu:XI-XV asrlarda Mug‘ullar davlati

Mug‘ullarning ijtimoiy tuzumi. Chingizxonning hokimiyatga kelishi. Boshqaruv tizimi. Harbiy qo‘shini va istilolar. Uluslarga bo‘linishi. Yasoq qonunlari. Oltin O‘rda xonligi.

45-mavzu:XI-XV asrlarda Xitoy

Sun sulolasi davrida ijtimoiy-iqtisodiy axvol. Savdo, hunarmandchilik va shaharlarning rivojlanishi. Mug‘ullar bosqini va unga qarshi kurash. Min sulolasini hokimiyatga kelishi va boshqaruvi. Xalqaro aloqalar. Madaniyat.

46-mavzu:XI-XV asrlarda Yaponiya

Yaponiyada erga egalik munosabatlarining shakllanishi. Davlat boshqaruvi. Shaharlarning yuksalishi va hunarmandchilik. Madaniyat.

47-mavzu:XI-XV asrlarda Koreya

Koreyada davlatchilikni rivojlanish bosqichlari. Uch qirollik davri. Koreya – Xitoy munosabatlari. Koriyo qirolligi davrida iqtisodiyot va madaniyat. Mug‘ullarga qarshi kurash. Choson qirolligining yuksalishi.

48-mavzu:XI-XV asrlarda Hindiston

Dehli sultonligini tashkil topishi. Yerga egalik munosabatlari. Davlat boshqaruvi. Chet elliklar bosqini va unga qarshi kurash. Sayidlar sulolasining hokimyatga kelishi. Madaniyat.

50-mavzu:XI-XV asrlarda Amerika va Afrika xalqlari

Ho‘jalik taraqqiyoti. Maya, Astek va Inklar davlati. Afrika davlatlari va ularning boshqaruv tizimi. Madaniyat.

51-mavzu:Geografik kashfiyotlar va mustamlakachilik tuzumini vujudga kelishi

Yangi tarix tushunchasi. Buyuk geografik kashfiyotlarning shart-sharoitlari va uning asosiy omillari. P.Taskonelli, X.Kolumb, Vasko Da Gamo. F.Magellan, Konkista harakati. Mustamlakachilik tizimining qaror topib borishi.

52-mavzu:Evropada reformasiya davri va yo‘nalishlari

XVI-XVII asrning boshlarida Germaniya davlati. Germaniyada dehqonlar ahvoli va ularning maxfiy tashkilotlari. Reformasiyaning shart-sharoitlari va g‘oyaviy asoslari. Reformasiya namoyondalari. M.Lyuter va uning 95 tezisi. Tomas Myunser xalq harakatining natijalari. Diniy dunyoqarashdagi o‘zgarishlar.

53-mavzu:Evropada o‘ttiz yillik urush. (1618-1648)

Xalqaro munosabatlarning keskinlashishi. Urushning boshlanish sabablari va uning asosiy davrlari. Urushning ishtirokchilari. Vestfaliya sulhi va uning Yevropa davlatlari uchun ahamiyati.

54-mavzu:G‘arbiy Yevropa davlatlarida kapitalistik munosabatlarning shakllanishi

XVI-XVII asrning birinchi yarmi. G‘arbiy Yevropa davlatlarida kapitalistik munosabatlarning shakllanishi. Dunyoni taqsimlash uchun boshlangan harakat.

Niderlandiya burjua inqilobi va uning xalqaro ahamiyati.

Angliyada kapitalistik belgilarning jonlanishi. G‘ov tutish siyosati va uning oqibatlari. Robert Ket qo‘zg‘oloni. Tyudorlar xonadonining ichki va tashqi siyosati. Savdo kompaniyalari va ularning faoliyati. Angliyada protestantlik harakatining borishidagi o‘ziga xoslik.

XVI-XVII asrning birinchi yarmida Fransiya

Gugenotlarning siyosiy qarashlari va katoliklar bilan olib borgan kurashlari. Absolyut monarxiyaning yana ham kuchayishi. Rishelening olib borgan ichki va tashqi siyosati.

XVI-XVIII asrning birinchi yarmida Usmon imperiyasi va uning tanazzulga uchrashi

Usmon imperiyasi hududining kengayib borishi. Yevropa davlatlari bilan olib borilgan savdo diplomatik munosabatlari. Imperiyaning inqirozi sabablari.

XVI-XVII asrlarda Yevropada ilmiy bilimlarning rivojlanishi.

Fizika, ximiya, geografiya, geologiya va texnika fanlarida erishilgan yutuqlar. Sxolastikaning inqirozga uchrab borishi va falsafiy bilimlarning rivojlanishi.

55-mavzu:Kapitalistik munosabatlarining shakllana boshlanishi

Erkin bozor munosabatlari bilan an’anaviy feodal monarxiya tuzumlari o‘rtasidagi ziddiyat. Sanoatlashuv. Qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlari elementlarining rivojlanishi. Yangi ijtimoiy o‘zgarishlarga zarurat. Mustamlakachilik harakatining boshlanishi. Dunyoning birlamchi taqsimlanish jarayoni, turli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy nazariyalar. Marksizm va uning asosiy xatolari. Tarixga sivilizatsion yondashuv.

56-mavzu:Angliyada kapitalizmning g‘alaba qilishi va ingliz burjua inqilobi

Ingliz kapitalizmi taraqqiyotining xususiyatlari. Kapitalizmning qishloq xo‘jaligiga kirib kelishi. Burjua inqilobi uchun zamin yaratilishi. Inqilobning boshlanishi, borishi va yakunlari. Fuqarolar urushi. Oliver Kromvel. XVII asr oxiri XIX asrning 70-yillarigacha Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida Angliyaning iqtisodiy rivojlanishi. Angliyada davlat tuzumi. Angliyaning tashqi siyosati. Agrar inqilobning yakunlanishi va sanoat inqilobining boshlanishi. Chartistlar harakati. Angliyaning dunyodagi yirik rivojlangan mamlakatlardan biri bo‘lib qolishi.

57-mavzu:XVIII asrdan 1870-yillargacha Fransiya

XVIII asr oxiri Buyuk fransuz inqilobi. Fransiyada absolyut monarxiya bilan yangi kapitalistik munosabatlar o‘rtasidagi ziddiyat. Inqilobiy vaziyatning vujudga kelishi. Xalq ommasining qirol tuzumiga qarshi kurashi. Bastiliyaning olinishi. Ma’muriy o‘zgarishlar. Ta’sis majlis va uning faoliyati. 1791 yilgi Konstitutsiya. Konstitutsion monarxiya. Varena inqirozi (siyosiy tanglik). Klublar, jamiyatlar, matbuot. Inqilobiy urushlar, qonun chiqaruvchi organ. Xalq qo‘zg‘olonlari. Konvent. Lyudovik XVI ni qatl qilinishi. Yakobinchilik. Yakobinchilar diktaturasi. Terror. Yakobinchilikning 3 yillik konstitutsiyasi. Direktoriya. 18-bryumerdagi davlat to‘ntarilish. Napaleon Bonapart. Birinchi imperiya davrida Fransiya.

Napaleon Bonapartning ichki va tashqi siyosati. Kontinental blokada. Tilzit sulhi. Napaleon imperiyasining avj nuqtasi. Fransiya – Rossiya ziddiyatlari. Rossiyaga qarshi urush. Barodino jangi. Fransuz armiyasining chekinishi. Oltinchi “Koalitsiya”, “Xalqlar jangi”. Vena kongressi. Burbonlar sulolasining tiklanishi. Muqaddas Ittifoq. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat. Burbonlar sulolasining ijtimoiy, tabaqaviy xususiyati. 1815-1830 yillarda Fransiyaning iqtisodiy rivojlanishi. Burbonlarning xalk,qa qarshi siyosati. Sarmoyadorlik – bozor iqtisodiyotiga to‘sqinlik qilish. 1827-1830 yillarda iyul monarxiyasi. Iyul monarxiyasi (1830-1848). Burbonlar restavrasiyasidan 1870 yilgacha Fransiya. Fransiyada 1848 yil inqilobning ijtimoiy asoslari, harakatlantiruvchi kuchi, siyosiy mohiyati. Ikkinchi imperiya davrida bonapartizmning jiddiy mohiyati. 50-60 yillarda Fransiyaning iqtisodiy ahvoli. Napaleon III ning agressiv tashqi siyosati, ikkinchi imperiyaning tanazzuli. Fransiya – Prussiya urushi arafasida ikkinchi imperiyaning tashqi siyosati.

58-mavzu:XVII asrdan 1870-yillargacha Germaniya va german davlatlari

XVII asr oxiridan XIX asrning 70-yillarigacha German davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli. Germaniyaga fransuz burjua inqilobining ta’siri. Germaniya Napaleon I hukmronligi ostida. German ittifoqi. 1815-1847 yillarda Germaniyaning iqtisodiy o‘sishi. 1847 yildagi iqtisodiy tanazzul. Inqilobiy vaziyat. Prussiyada davlat to‘ntarilishi. XIX asrning 50-60-yillarida Germaniya iqtisodiyotining o‘sishi. XIX asrning 50-60-yillardagi siyosiy tanglik.

Bismark tomonidan Germaniyaning birlashtirish rejasi. XIX asrning 60-yillardagi pruss hukumatining tashqi siyosati.

59-mavzu:XVII asrdan 1870-yillargacha Rossiya

XVII asr oxiridan XIX asrning 70-yillarigacha Rossiya. Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Qishloq xo‘jaligi. Manufakturaning paydo bo‘lishi. XVII asrning II yarmida Rossiyaning ichki siyosati. Absolyutizmning qaror topishi. Rossiya imperiyasining tashkil topishi. Shimoliy urush. XVIII asr II yarmi - XIX asrning birinchi yarmida Rossiyaning ichki tashqi va siyosat. XIX asrning 50-60 yillarida Rossiyaning ichki va tashqi siyosati.

60-mavzu:XVIII asrdan 1870-yillargacha AQSh

Shimoliy Amerikaning mustamlakaga aylantirilishi. Amerikaning shimolida mustamlaka tizimi. Shimoliy Amerikadagi Angliya mustamlakalarining ozodik uchun kurashning tarixiy shart-sharoitlari va ijtimoiy asoslari. Amerikada iqtisodiy munosabatlar va metropoliya o‘rtasidagi ziddiyatlar. Mustaqillik uchun olib borilgan urush. XVIII asrning ikkinchi yarmida AQSh ning tashkil topishi. Mustaqillik Deklarasiyasi va uning tarixiy ahamiyati. Inson huquqlari g‘oyasi. Demokratik jamiyat asoslarini yaratish uchun kurash. AQSh Konstitutsiyasi. AQSh dagi inqilobiy o‘zgarishlarning mohiyati. XIX asrning birinchi yarmida AQSh ning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti. Qo‘sh partiyalilik tizimi.Janubda quldorlik va Shimolda sanoat ziddiyati. AQSh ning g‘arb tomon kengayishi. Janubiy shtatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy qoloqlik. XIX asrda AQShda Shimol va Janub o‘rtasida fuqarolar urushi. Shimolning g‘alabasi. Avraam Linkoln. Qulchilikning bekor qilinishi. Janubiy shtatlarni mamuriy qayta tuzib chiqilishi. AQSh taraqqiyotining asosiy xususiyatlari. Mamlakatda transport tizimi va iqtisodiyot. Agrar va sanoat sohalarining rivoji. Meksika bilan urush. Texas va boshqa shtatlarni AQSh ga qo‘shib olinishi.

61-mavzu:XVIII asr oxiridan XIX asr 60-yillarigacha Avstriya imperiyasi

Avstriya imperiyasining umumiy siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli. Sanoat to‘ntarilishining boshlanishi. Metternix hukumatining reaksion ichki va tashqi siyosati. Avstriya imperiyasida milliy ozodlik harakatining ko‘tarilishi. XIX asrning 50-60-yillarida Avstriya imperiyasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, 50-60 yillarda agressiv tashqi siyosati. Avstro-Vengriya (dualistik) imperiyaning yuzaga kelishi.

62-mavzu:XIX asrning 30-70 yillarida Lotin Amerikasi davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

Lotin Amerikasida mustamlaka davri. Mustamlaka tuzumi sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Xalq ommasining ezilishi. Negrlar va tub joy aholi hindularning og‘ir ahvoli. XVIII asr oxiri va XIX asr oxirlarida milliy ozodlik inqiloblar. Lotin Amerikasi inqiloblarining tipologiyasi. Lotin Amerikasida milliy davlatlarning tashkil topishi va ulardagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar. Lotin Amerikasida madaniy hayot.

63-mavzu:XVIII asrdan – 1870 yillargacha Xitoy

Yangi davr boshida Xitoyning umumiy tavsifi. Sin imperiyasining vujudga kelishi. Sin sulolasi davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzumi. Tashqi siyosat. Feodal munosabatlar inqirozi. Xitoy xalqining Sin sulolasi va feodal zulmga qarshi kurashi. Xitoyga chet davlatlarining kirib kelishi. I Afyun urushi. Angliyaning Xitoyni va Xitoy bozorini “ochish”ga intilishi. Afyun savdosi. Ingliz-Xitoy qarama-qarshiligi. Nankin shartnomasi. Xitoyni zo‘rlab “ochilishi”ning oqibatlari. Taypin Tyangoning e’lon qilinishi. Taypinlar davlatining siyosati. Angliya va Fransiyaning Xitoyga qarshi ikkinchi urushi. Tyantszin shartnomalari. Taypinlarga qarshi ingliz-fransuz-amerika intervensiyasi. Taypinlarni interventlarga qarshi kurashi. Taypinlar urushini mag‘lubiyatining sabablari.

64-mavzu:Hindistonni bosib olishning tugallanishi

XIX asrning I yarmida Hindiston xalqlari mustamlakachilik zulmi ostida. Maratx knyazliklarining bosib olinishi. Radjastxan, Assamni bo‘ysindirilishi. XIX asr I yarmida Panjob. Ingliz-Panjob urushlari. Hindistonda ingliz mustamlakasi ma’muriyati. Ingliz mustamlakachilarining agrar siyosati. Ingliz tovarlari keltirishning kuchayishi. Hind hunarmandchiligining tushkunlikka uchrashi. Mustamakachilarning ta’lim va madaniyat sohasidagi siyosati. Hindiston xalqlarining bosqinchilarga qarshi kurashi.

65-mavzu:XVIII asrning II yarmi va XIX asrning 70-yillarida Yaponiyaning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli

Yaponiyaning Yevropa bilan ilk aloqalari. Tokugava Syogunligining vujudga kelishi. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayot. Tokugavalarning tashqi siyosati. Mamlakatning tashqi dunyodan ajratib qo‘yilishi. Tokugavalar davrida madaniyat. Feodal munosabatlari. Krizisning keskinlashishi.

66-mavzu:XVII asrning II yarmi va XIX asrning I yarmida Eron

Eronda er munosabatlari, shaharlar, hunarmandchilik, savdo, siyosiy tuzum. Eron va Yevropa mamlakatlari. Eronda ingliz-fransuz raqobati. 1804-1813-yillarda rus-eron urushi. Eronda ingliz-rus raqobatchiligi. Ingliz sarmoyasini Eronga kirib kelishining oqibatlari. Feodal munosabatlar inqirozining keskinlashuvi. Bobiylar qo‘zg‘oloni, harakteri, mag‘lubiyat sabablari. Amir Nizomiy islohatlari. 1856-1857-yillardagi Ingliz-Eron urushi.

67-mavzu:Usmoniylar imperiyasining tanazzulga uchrashi

Agrar munosabatlar. Len tizimini buzilishi. Dehqonlar ahvoli. Usmon imperiyasidagi shaharlar. Hunarmandchilik va savdo. Siyosiy tuzum. Toifa kurashning keskinlashishi. Feodal separatizmning o‘sishi. Madaniyatning tushkunlikka uchrashi. Rus-turk urushlari. Yevropa mustamlakachilarining Usmon imperiyasiga kirib kelishi. Sharq masalasini paydo bo‘lishi. Salim III islohotlari. Rus-turk urushi. Mustafo-Poshsha Bayroqdor. Rossiya bilan urushning davom etishi. Buxarest sulhi.

68-mavzu:XVII-XIX asrlarda Afg‘oniston

Afg‘onistonda Durroniylar davlatining tashkil topishi. I-II afg‘on urushlari. Gandamak shartnomasi, ingliz mustamlakachilariga qarshi xalq qo‘zg‘olonlari.

Ingliz-afg‘on urushining tugashi. Afg‘oniston chegaralarining belgilanishi. XIX asr oxirida Afg‘oniston.

69-mavzu: Monopolistik kapitalizmgacha bo‘lgan davrda Osiyo va Afrika xalqlari mustamlaka zulmi ostida

Jahon kapitalistik bozorini vujudga kelishi. Monopolistik kapitalizmgacha bo‘lgan mustamlakachilik tizimi. Sharq mamlaktlari – tovarlar sotiladigan bozorlar va mustamlakachi mamlakatlarning xomashyo manbai. XIX asr o‘rtalaridagi xalq qo‘zg‘olonlari. Kurashning o‘rta asrlarga xos shakli. O‘tkazilgan muvaffaqiyatsiz islohatlar. Monopolistik kapitalizmgacha bo‘lgan davrda sharq xalqlarining tarixiy roli.

70-mavzu:XVIII asr oxiri XIX asr 70-yillarida xalqaro munosabatlar

Yangi davrda Yevropa va Amerika qitalarida bir necha davlatlar yukcalb xalqaro maydonda xal qiluvchi rol o‘ynay boshlashi. Savdo-sotiqning kengayishi va mohiyatining o‘zgarishi. XVIII asrda Rossiya xalqaro ta’sirining kuchayishi. Angliya – Fransiya munosabatlari. XVIII asrning birinchi yarmida Avstriya – Fransiya va Avstriya – Ispaniya etti yillik urush arafasida davlatlarning qaytadan guruxalarga bo‘linishi. XVIII asrning 60-yillarida Rossiyaning tashqi siyosati. Qurolli betaraflik 1789-yilda Yevropadagi xalqaro ahvol.

Bu davrda borliq dunyo xaqidagi bilimlar to‘liq ilmiy asosda tushuntirib berildi. Inson tabiatda o‘z aqli bilan hukmron mavjudot sifatida tan olindi. Taraqqiyotning xal qiluvchi omili texnika ekani tushunib o‘tildi. Fan taraqqiyotining umumiy xususiyatlari. Fan – ishlab chiqaruvchi kuch. Yirik mashinasozlikning rivojlanishi. Bug‘ bilan yuradigan mashinalar yaratilishi. F.Blek, G.Galiley, Dekart, Ch.Darvin va boshqa olimlarning tabiat, jamiyat sohalaridagi ilmiy kashfiyotlari.

Yevropa davlatlarining Osiyo va Afrikada dastlabki mustamlakalarning yuzaga kelishi. Yangi davr boshlarida Osiyo va Afrikaning siyosiy xaritasi. Sharq mamlakatlarini mustamlaka asoratiga solina borishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.

71-mavzu: Fransiya – Prussiya urushi

Fransiya – Prussiya urushining sabablari. Urush harakatlarining borishi. Parijning qamal qilinishi. Fransuz xalqining qarshilik harakati. Frankfurt sulhi.

72-mavzu: 1871-1914 yillarda Fransiya

XIX asrning so‘nggi o‘ttiz yilida Fransiya. XIX asrning so‘nggi 30 yilida Fransiyaning iqtisodiy o‘sishi va 1875 yilgi Konstitutsiya. XIX asrning 70-80 yillarida respublikachilar va podshoparastlar o‘rtasida kurash. Uchinchi respublikaning siyosiy tanazzuli. XIX asrning 90-yillarida Fransiya. Dreyfus ishi. Panama masalasida siyosiy nayrang. Fransiya va Rossiyaning mustamlaka bosqinchiligi. Fransiya-Rossiya ittifoqi. Birinchi jahon urushi arafasida Fransiya.

73-mavzu: 1871-1914-yillarda Germaniya

Fransiya – Prussiya urushi va Germaniyaning birlashtirilishining tugallanishi. 1871-yil imperiya Konstitutsiyasi. 1871-1899-yillarda Germaniya iqtisodining o‘sishining sabablari. Qishloq xo‘jaligining o‘sishi. XIX asrning 70-

yillarida Bismark hukumatining ichki siyosati. Bismarkning kanslerligi yillarida Germaniyaning tashqi siyosati. XX asrning boshida Germaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Germaniyaning tashqi siyosati. Berlin-Bog‘dod temir yo‘li.

74-mavzu: 1870-1914-yillarda Avstriya – Vengriya

XIX asrning ikkinchi yarmida Avstro-Vengriya ijtimoiy-iqtisodiy holati. Taf hukumatining siyosati. XIX asrning 70-90-yillarida Avstriya va Vengriyaning ishchilar harakati. XX asrning boshida Avstro-Vengriyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Avstro-Vengriya imperiyasining tashqi siyosati.

75-mavzu: 1870-1914-yilarda Angliya

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Angliya iqtisodiyotining o‘sishi. Angliya imperializmining mustamlaka siyosati. Angliyaning jahon bozoridagi mavqeini pasayishi. Bolfur va Solsberi kabinetlarining reaktsion ichki siyosati. Ingliz – Bur urushi. Antaning vujudga kelishi. 1904-yil Angliya – Fransiya o‘rtasida Antanta bitimi. 1907-yilgi Angliya – Rossiya bitimi. Angliyada 1911-yil parlament islohati. Irlandiyada milliy ozodlik harakatining kuchayishi. Angliyaning birinchi jahon urushi arafasida siyosiy tanazzuli.

76-mavzu: XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiya. Qrim urushidan so‘ng Rossiyaning xalqaro ahvoli

Rossiyaning uzoq sharqdagi siyosati. “Uch imperator ittifoqi” 1875-1876-yillarda Sharq tanazzuli. 1877-1978-yillardagi Rossiya – Turkiya urushi. San – Stefano kelishuvi. Berlin kongressi. Fransiya – Rossiya ittifoqi. XX asrning boshida Rossiyadagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy xolat. Rossiyada revolyusion xarakatlarning ko‘tarilishi. Chor samoderjaviyasining inqirozga yuz tutishi. Rossiyada fevral burjua inqilobi. Ikki xokimyatchilikning vujudga kelishi. 1917-yil oktyabr to‘ntarishi. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrning boshida Rossiyada ilm fan va madaniyat.

77-mavzu: 1870-1914-yillarda AQSh. XX asr boshlarida AQSh iqtisodining o‘sishi

Amerika imperializmining ichki reaksion siyosati. Irqiy kamsitish. XIX asr oxiri XX asr boshlarida AQSh bosqinchilik va tajovuzkorlik siyosatining kuchayishi. Kuba – Ispaniya istibdodi ostida AQShning Ispaniya bilan urushi. AQShning Lotin Amerika mamlakatlariga tajovuzi. Panamaning bosib olinishi. Panama – Amerika ittifoqi. “Katta tayoq” va “Dollar diplomatiyasi” siyosati. 1900-yil Xitoyda xalq qo‘zg‘alonini bostirishda AQShning ishtiroki. 1912-yilgi Prezident saylovlari. Prezident Vilson hukumatining jahon urushi arafasidagi ichki siyosati.

78-mavzu: 1870-1914-yillarda Ispaniya va Portugaliya

Ispaniyada Burbonlar sulolasining qayta tiklanishi. XIX asr boshlarida Ispaniyadagi siyosiy va iqtisodiy ahvol. Qonli haftalik, siyosiy kurashlar va Marokko muammosi. XIX asr oxirida Portugaliyadagi iqtisodiy rivojlanish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Portugaliyaning ichki va tashqi siyosati. Portugaliyadagi 1910-yilgi revolyusiya va uning oqibatlari.

79-mavzu: 1870-1914-yillarda Lotin Amerikasi davlatlari

Lotin Amerikasi mamlakatlarida taraqqiyotning umumiy xususiyatlari: sanoat, qishloq xo‘jaligi. Yevropa va AQShga tobelik. Tub aholi hindularning talanishi. Qulchilik. Yevropa va AQSh o‘rtasida Lotin Amerikasi uchun raqobat. G‘arbiy to‘qnashuvlar. “Katta tayoq” siyosati. Sanoatda sarmoyadorlikning o‘sishi. Argentina, Braziliya, Peru, Boliviya, Chili, Markaziy Chili mamlakatlari, Kuba, Lotin Amerikasi mamlakatlarida AQSh bosqinchi siyosati. AQShning “Amerika amerikaliklar uchun” siyosati. Meksika inqilobi.

80-mavzu: 1870-1918-yillarda Xitoy

